

AXBOROT TIZIMINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Pulatov Jalol Rustamovich

SamDU doktoranti

Annotasiya. Ushbu maqolada hozirgi dunyoning globallashuvi jarayinida axborot tizimining ijobiy yoki salbiy tomonlarining asosiy aspektlari yoritilib berilgan. Shu bilan birgalikda bugungi kunda axborot tizimining maqsadi axborot tizimi globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari haqidagi muqobil falsafiy ta'limotlar turli manfaatlarga asoslangan bo'lsa ham, salbiy oqibatlarini bartaraf qilishda inson omili va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni ijtimoiy-falsafiy jihatdan taxlil etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot, axborot tizimi, axborot madaniyati, ijtimoiy taraqqiyot, globallashuv, sivilizasiyalar tarixi, madaniyat, metod.

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Пулатов Джалал Рустамович

Докторант СамГУ

Аннотация. В данной статье освещаются основные аспекты плюсов и минусов информационной системы в процессе глобализации современного мира. Вместе с тем сегодня целью информационной системы является социально-философский анализ человеческого фактора и его роли в социальном развитии в преодолении негативных последствий, хотя альтернативные философские учения о положительных и отрицательных последствиях глобализации базируются на разных интересах.

Ключевые слова: информация, информационная система, информационная культура, социальное развитие, глобализация, история цивилизаций, культура, метод.

POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF THE INFORMATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Pulatov Jalal Rustamovich

SamDU doctoral student

Annotation. This article covers the main aspects of the positive or negative aspects of the information system in the current trend of globalization of the world. At the same time, the purpose of the information system today is the information system although alternative philosophical teachings about the positive and negative consequences of globalization are based on various interests, the human factor and its role in social development are socio-philosophically justified in eliminating the negative consequences.

Keywords: information, information system, information culture, social development, globalization, history of civilizations, culture, method.

Hozirgi dunyoning global, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy ekologik muammolari yechimi, ularga axborot tizimi transformasiyasi va globallashtirish tarixi kontekstida yondashuvni taqozo qilmoqda. Zero, zamonaviy axborot nazariyasi ta'limotlariga ko'ra, ularning kelib chiqish sabablarini ham, oqibatlarini ham, ko'lamini ham aniqlashda axborot bazasi asosiy shart hisoblanadi. Axborot tizimiga hozirgi globallashtirish darajasida erishilgan ijobiy yoki "salbiy" natijalari, an'anaviy industrial (hozir postindustrial-axborotlashgan, innovatsion-texnologik axborotlashgan) rivojlangan mamlakatlarga hamda milliy taraqqiyotda "uchinchi dunyo" davlatlarga differentsiallashtirish tarzida ta'sir ko'rsatadi¹. Xususan, uning ijobiy ta'siri, dunyo davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarida texnika, texnologiya, investisiya, intellektual salohiyat, axborot

¹ Хозир ижтимоий-гуманитар ва сиёсий фанларда "учинчи дунё" тушунчасини қўллашда эҳтиёткорлик билан ёндашувларни кузатамиз. Дарҳақиқат, замонавий глобallashtirish жараёни, умуман цивилизациялар, хусусан axborot madaniyatining rivojlaniш tendentsiyasini belgilaб бермоқда. Яъни дунёларни географик-маъмурий жиҳатлардан: ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий, техник, технологик, интеллектуал ривожланиш даражаларига кўра, axborot madaniyatining объектлари ва субъектларини: "биринчи", "иккинчи", "учинчи" деб баҳолаш мезонларини шартли ва nisbiy қилиб қўймоқда.

ayriboshlash infrastrukturasi va kommunikasiyasini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish bilan xarakterlanadi.

Axborot tizimining maqsadi – muayyan professional faoliyat bilan bog'liq bo'lgan professional axborot ishlab chiqarish. Axborot tizimlari har qanday sohadagi vazifalarni hal qilish jarayonida zarur bo'ladigan axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish, chiqarib berishni ta'minlaydi. Axborot tizimi – qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish va chiqarishda foydalaniladigan vositalar, usullar va xodimlarning o'zaro bog'liq majmui. Bugungi kundagi zamonaviy axborot tizimi tushunchasi axborotga ishlov berishning asosiy texnik vositasi sifatida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Yirik tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlar bilan bir qatorda axborot tizimining texnik bazasi tarkibiga meynfreym yoki super elektron hisoblash mashinalari kirishi mumkin. Bundan tashqari, agar ishlab chiqarilayotgan axborot foydalanuvchisi bo'lgan va usiz bu axborotni olish va taqdim etish mumkin bo'lmagan odamning roli hisobga olinmas ekan, axborot tizimi texnikaviy timsolining o'zi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmay qoladi.

Axborot - ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma'lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to'plangan tajribalari majmui demakdir. Axborot tufayli nazariy bilimlar amaliyot bilan birlashadi.

Shu nuqtai nazardan, uning ijobiy va salbiy oqibatlarini, jamiyatga ta'sir yo'nalishlarini, funksional ahamiyatiga ko'ra iqtisodiyotning – talab va taklif; foyda va zarar; siyosatshunoslikning – progress va regress, agressiya va kompromis; ideologiyaning – bunyodkorlik va vayronkorlik; etikaning – ezgulik va yovuzlik, xarizmatizm va egoizm; estetikaning – go'zallik va xunuklik, tragediya va komediya kabi kategoriyalari kontekstida o'rganish, uning mazmuni, mohiyati haqida, nisbatan to'liq ilmiy tasavvurlarni shakllantiradi.

Shuning uchun hozir psevido (soxta) axborot globallashuvi sharoitida, uning turli xalqlar, millatlar va hududlar ijtimoiy-madaniy hayotiga salbiy ta'siridan

xavotirlanishdan – amaliy qarshilik ko'rsatishga o'tish xarakterlidir. Ya'ni aksariyat siyosiy sharhlovchi va tahlilchilarning ta'kidlashlaricha islom, hind, xitoy va boshqa qator sivilizasiyalarda tarixiy shakllangan ma'naviy qadriyatlarga, madaniy merosga, ijtimoiy institutlarga tayangan holda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishga intilish tendensiyasi namoyon bo'lmoqda².

Falsafiy adabiyotlarda, umuman globallashuv ijtimoiy fenomeniga, xususan axborot “bosimi” eskalasiyasiga munosabatda radikalizm va liberalizm yondashuvlari kuzatilmoqda³. Ya'ni birinchi – radikalizm oqimiga mansub olimlar globallashuvni yangi tipdagi jahon urushi⁴ yoki uning avj olishi “ommaviy madaniyat” shakllanishiga olib kelib, millat ma'naviy qashshoqlashuvi, ularning o'zligini anglamaydigan manqurtlariga aylantirish imkoniyati⁵, degan pessimistik xulosalar ustuvorlik qilsa, ikkinchi – liberalizm ta'limotlarida globallashuv jarayoni, insoniyatning umumiy qonuniyati sifatida, uning sivilizasiyasi kelajak istiqbollari saqlab qolish imkoniyati tarzida baholanadi.

Lekin, bir tomondan, globallashuv jarayoni va natijalariga muayyan manfaatlarga ko'ra yondashishlar, nisbatan muqobil nazariyalar yaratilishiga asosiy sabab bo'lsa ham, baholashning o'ziga xos umuminsoniy mezonlarini shakllantirgan. Ikkinchi tomondan, bu mezonlarni konkret tarixiy davr, ijtimoiy makonning iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy tizimi xarakteri, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti xususiyatlariga differensial yondashib, umuminsoniy gumanistik va demokratik tamoyillarga mos kelishi yoki zidligi nuqtai nazaridan baholash joiz.

Umumlashtirib va konkretlashtirib aytganda, bir tomondan, hozirgi davrda globallashuv jarayoniga nisbatan shakllangan jahon jamoatchilik fikrini bir-biriga

² Қаранг: Туленова Г. Проблема конфликта в духовной сфере // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Ташкент, 2004. №2. - С. 160.

³ Шу ўринда бу оқимларида бир-бирига диаметриал қарама қарши фқрлар мавжудлигини, манфаатлар муқобиллиги билан изоҳлаш кераки.

⁴ http://uz.infocom.uz/more.php?id=207_0_1_0_M8

⁵ Қаранг: Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. 170 б.

qarama karshi bo'lgan globalistlar va antiglobalistlar yo'nalishlariga ajratishni, uning natijalariga muayyan manfaatlar asosida yondashuvning namoyon bo'lishi tarzida qarash kerak. Ikkinchi tomondan, umuman globallashuv jarayoni, xususan uning konkret yo'nalishlari retrospektiv-tarixiy asoslari tadqiqotiga bag'ishlangan adabiyotlarda, aksariyat holatlarda, uni yangi tarixiy davr xususiyati sifatida izohlash, nisbatan keng tarqalgan.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", asarida globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama chuqur yoritib bergan edi. Xususan, hodisaning ijobiy tomonlariga oid fikri, bevosita axborot madaniyati globallashuviga ham taalluqlidir, ya'ni "Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integrasiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investisiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalarining ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda umumlashuvi, sivilizasiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda"⁶, – deb ta'kidlagan edi.

Axborot sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash yo'lida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab muammolar mavjudligi, barqaror hayotni izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakl va mazmundagi axborotlar tahdidining avj olib borayotgani ham obyektiv holatdir⁷.

Darhaqiqat, hozirgi davrda axborot tizimining nisbatan turg'un paradigmalari, mafkuraviy postulatlarini imperativligi bilan insonning globallashuv jarayoniga

⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 111-112 б.

⁷ Қўшаев У. Аxborot истеъмоли маданияти. – Тошкент: "Extremum-press" нашриёти, 2013. – 44 б

ko'nikish effektini – adaptasiya potensialini shakllantirish imkoniyatlari o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf qilishning zaruriyati va ahamiyati aniq ko'zga tashlanmoqda.

Globalashuv – yoshlar orasida jinoyatchilikning kuchayib borishiga, giyohvandlik illati tarqalishiga, tarixiy merosga nigilistik munosabat shakllanishiga, g'ayriaxloqiy xulq-atvor, xatti harakatlar, “ommaviy madaniyat” eskalasiyasiga, yangi sosial “infeksiyalar”, “viruslar” epidemiyasiga sabab bo'lmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, hozirgi davrda axborot tizimi sohasida xalqaro munosabatlar kommunikasiyasi va infrastrukturasini rivojlanishi shaxs ijtimoiy-siyosiy mobilligini kuchaytirib, milliy identifikatsiyaga salbiy ta'sir o'tkazayotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Vaholanki, global axborot tizimi rivojlanishini millatlar mental qiyofasini o'zgartirish va o'zligini yo'qotish sababi emas, aksincha, millatlar rivojlanishining zaruriy shart-sharoiti, imkoniyati sifatida qarash kerak.

Lekin hozirgacha jamiyat taraqqiyoti tajribalari, nazariy jihatdan, mafkuraviy qarama qarshi qutbli dunyoning barham topishi natijasida vujudga kelgan integratsiyalashuv va globalashuv jarayonlari, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot sohalarida ziddiyatlarni bartaraf qilib, umuminsoniy sivilizatsiyani tashkil qilishga asos bo'ladi, degan g'oyalar utopik xarakterga egaligini, aksincha, ularning yangi formatlarda keskinlashuvini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham hozirgi zamon globalistika nazariyasi bilan shug'ullanayotgan olimlarning “global inkiroz, birinchi navbatda, utilitar-pragmatik axloq normalari hamda insonning tabiat va boshqa kishilar bilan o'zaro munosabat shakllari inqirozidir. Bunday vaziyatda bilim (haqiqat) va axloq (ezgulik)ning o'zaro munosabatlari muammosini yangicha yechimini topishda progress va gumanizm haqida o'zgacha tasavvurlarni shakllantirish talab qilinadi”⁸, – degan fikrida muayyan haqiqatni ko'ramiz.

⁸ Арефьева Н.Т. Роль образования в системе глобальных ценностей // Личность. Культура. Общество. Москва, 2008. Вып. 5-6. С. 427. (425-428)

Bu tasavvurlarning genezisini, shakllantiruvchi obyektiv shart-sharoitlarini, subyektiv omillarini o'rganish, negativ globallashuv profilaktikasi va uning salbiy oqibatlarini milliy, mintaqaviy va jahon miqyosida bartaraf qilish yo'llarini, usul-vositalarini aniqlashda muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Zero, har qanday sohadagi globallashuv jarayonining salbiy oqibatlarini bartaraf qilishdan ko'ra, oldini olishning siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash nisbatan "arzon" va qulaydir.

Lekin shuni ham alohida ta'kidlash joizki, umuminsoniy axborot madaniyati maydonini rivojlantirish maqsadi doirasida, milliy, mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy munosabatlar integrasiyalashuvi, individual motivlari, harakatlantiruvchi mexanizmlari va natijalariga ko'ra, salbiy (hatto, reaksiyon) xarakterga ega bo'lib, jamiyat global barqaror taraqqiyoti va sivilizasiya kelajagi manfaatlariga mos kelmasligi mumkin.

Shuning uchun davlatlarning global axborot madaniyati maydoniga integrasiyalashuvini, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorliklarining rivojlanish xarakteri va darajasini belgilaydigan mezon, deb baholash joiz. Zero, sivilizasiyalar atributi va belgisi bo'lgan fan, texnika, texnologiya, intellektual salohiyat taraqqiyotining shaxs ma'naviyatiga "axborot bosimi" kuchayishi, "ommaviy madaniyat" tahdidi eskalasiyasi jamiyat ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarini keskinlashtirib, jahon hamjamiyatini sarosimaga, tahlikaga solmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, umuman sivilizasiyalar, xususan axborot madaniyati tarixida yo'l qo'yilgan xatolarni atroflicha tahlil qilib, uning ta'sir yo'nalishlarini va oqibatlarini obyektiv baholashning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy-nazariy asoslarini, mafkuraviy usul-vositalarini konkretlashtirishni taqozo qilmoqda.

Shuning uchun xalqaro munosabatlar keskinlashayotgan hozirgi sharoitda, globallashuv "sivilizasiyalar dialogi va xalqaro madaniy aloqalarning yangi

darajasi”⁹ yoki “iqtisodiyot va siyosat rivojlanishining oliy bosqichi, madaniyat rivojlanishining esa, boshlang’ich holatidir”¹⁰, degan ta’riflarni axborot madaniyatiga ta’sir oqibatlarini kontekstida qaraydigan bo’lsak, ko’proq hayotdan ajralgan deklarativ xarakterga egaligi namoyon bo’ladi. Sivilizasiyalar globallashtirish jarayonining obyektiv xarakterini, umuminsoniyat tarixiy taraqqiyotining maqsadga muvofiqligi tamoyiliga ko’ra baholashda, uning demokratik xususiyati va gumanistik mazmuni determinlashtiruvchi omil sifatida e’tiborga olinishi kerak.

Darhaqiqat, har bir ongli inson, faqat o’zining muayyan ijtimoiy birlikka, demografik, etnografik guruhga, dunyoqarashga emas, balki global hamjamiyatga ham mansubligini anglab, butun insoniyatning taqdiri uchun mas’uliyatini his qilishi va amaliy faoliyati bilan sivilizasiyalashgan axborot jamiyatiga a’ziligini (shaxsligini) namoyon qilishi mumkin. Zero, hozirgi davrda inson shu missiyasiga ko’ra, global ijtimoiy makonda axborot madaniyatini umuminsoniyat maqsadiga mos yo’naltirishga mas’ulligini his qilib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolar yechimi, axborot madaniyatining pozitiv-progressiv natijalarini planetar miqyosda transformasiya qilishni boshqarishga bog’liqligini anglab yetmoqda.

Darhaqiqat, axborot tizimi globallashtirishning turli bosqichlari inson amaliy faoliyatini, jamiyat ijtimoiy munosabatlarini ongli ravishda ravishda tashkillashtirish va boshqarish natijasidir. Bu esa, o’z navbatida, kelajakda insonning jamiyatdagi o’z o’rnini, maqomini aniqlab, ijtimoiy munosabatlari xarakterini, maqsadlari yo’nalishlarini, qadriyati mo’ljallarini, vazifalari strategiyasini, ularni amalga oshirish taktikasini belgilab olishga yordam beradi.

Zero, jahon ilmiy jamoatchiligi insonning axborot madaniyati texnologik resurslaridan foydalanishda dunyoning dinamik o’zgarayotgan ijtimoiy-siyosiy borlig’iga “adaptasiya potentsiali” imkoniyatlarini hisobga olmaydigan xo’jalik

⁹ Махкамова Д. Центральная Азия и страны Востока на пути сотрудничества и диалога культур // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2004. № 2. С.20. (17-20).

¹⁰ Адилходжаева С.М. Глобализация и вопрос устойчивого развития государства. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2008 № 3. С.55.-(55-63).

faoliyati qanday oqibatlarga olib kelishi haqida yetarli statistik-sosiologik ma'lumotlar bazasiga, axborotlar bankiga ega. Vazifa esa, ularni tarixiy-mantiqiy umumlashtirib, nazariy xulosalar, metodologik tavsiyalar, amaliy takliflar ishlab chiqish va ularni hayotga joriy qilish modellarini yaratishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, milliy, mintaqaviy sivilizasiyalar integrasiyasida demokratik, gumanistik va tolerantlik tamoyillariga asosan erishilgan natijalar, global axborot tizimi e'tirof etilishi kerak;

ikkinchidan, axborot tizimi globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari haqidagi muqobil falsafiy ta'limotlar turli manfaatlarga asoslangan bo'lsa ham, salbiy oqibatlarini bartaraf qilishda inson omili rolini e'tirof etishda yakdillik kuzatilmoqda;

uchinchidan, hozirgi postindustrial-axborotlashgan jamiyatda axborot tizimi natijasi "ommaviy madaniyat", uning asosiy subyekti va obyekt bo'lgan shaxsni marginallashtirib, tarixiy xotira va merosdan begonalashtirishni yangi bosqichga ko'tardi;

to'rtinchidan, axborot tizimining huquqiy asoslarini, ma'naviy-axloqiy normalarini, siyosiy mexanizmlarini, obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillari uyg'unligini ta'minlash, globallashuvning salbiy oqibatlari profilaktikasida muhim ahamiyatga ega;

beshinchidan, axborot tizimi globallashuvining ijobiy natijalari transformasiyasi, salbiy oqibatlari eskalasiyasi oldini olish davlat boshqaruvini demokratiyalashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga bog'liq.